O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Kivini sotish va uning sifatini nazorat qilish standarti

(FFV 46:2017, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #G6KQFTJP9S - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FFV 46:2017 “Standard for the sale of kiwifruit and product quality control” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatishning mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir.

STANDARTLAR INSTITUTI #G6KQFTJP9S - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

IZOH

Qishloq xo‘jaligi sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (BMT YeIK) Qishloq xo‘jaligi sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruhining tijorat standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va rentabellikni oshiradi.

Ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMT YEIK standartlari hukumat tashkilotlari, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import va eksport qiluvchilar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi va yangi uzilgan meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mevalar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo har qanday mamlakat ishchi guruh faoliyatida teng ishtirok etishi mumkin. BMT EEKning qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni bizning veb-saytimizdan olishingiz mumkin: http://www.unece.org/trade/agr>.

Kivi mevasiga doir ushbu amaldagi Standart ishchi guruhning yetmish uchinchi sessiyasida ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan ECE/CTCS/WP.7/2017/18 hujjatiga asoslanadi.

Standartning unifikatsiyalangan tuzilmasiga muvofiqlashtirilgan (2017)

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #G6KQFTJP9S - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

KIVINI SOTISH VA UNING SIFATINI NAZORAT QILISH STANDARTI

СТАНДАРТЫ ПРОДАЖИ КИВИ И КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА ПРОДУКЦИИ

STANDARD FOR THE SALE OF KIWIFRUIT AND PRODUCT QUALITY CONTROL

Amalga kiritish sanasi 01.08.2026-y.

I Mahsulotni belgilash

Ushbu standart Actinidia chinensis Planch. va Actinidia deliciosa (A. Chev.) C.F. Liang va A.R. Ferguson turlaridan yetishtirilgan, iste’molchilarga yangi holatda yetkazib berishga mo‘ljallangan kivi mevalarining (shuningdek, aktinidiya yoki kivi sifatida tanilgan) navlariga (pomologik navlariga) nisbatan qo‘llaniladi. Sanoatda qayta ishlashga mo‘ljallangan kivi mevalari bundan mustasno.

II Sifatga oid qoidalar

Ushbu standartning maqsadi tayyorlash va qadoqlashdan keyingi bosqichda kivi mevalariga qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq, eksportdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, mahsulotlar standart talablariga nisbatan quyidagi holatlarni namoyon qilishi mumkin:

• yangilik va turgorlik (taranglik) holatining biroz pasayishi;

• oliy navdan tashqari toifalarga kiritilgan mahsulotlar uchun ularning rivojlanishi va buzilish tendensiyasi tufayli holatining biroz yomonlashishi.

Mahsulot egasi/sotuvchisi bunday mahsulotlarni ko‘rgazmaga qo‘yishi yoki sotish uchun taklif qilishi yoxud ushbu standartga muvofiq bo‘lmagan boshqa tarzda yetkazib berishi yoki sotishi mumkin emas. Mulkdor/sotuvchi bunday muvofiqlikka rioya qilish uchun javobgardir.

A. Minimal talablar

Barcha kivi mevalar, har bir nav uchun ko‘zda tutilgan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan me’yorlarni hisobga olgan holda, quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• butun bo‘lishi

• sifatli bo‘lishi; chirishga yoki boshqa turdagi buzilishga uchragan, iste’molga yaroqsiz mahsulotga yo‘l qo‘yilmaydi

• toza bo‘lishi; amalda ko‘rinadigan begona moddalardan xoli bo‘lishi

• deyarli zararkunanda hasharotlardan xoli bo‘lishi

• zararkunanda hasharotlar tomonidan etiga yetkazilgan shikastlarsiz bo‘lishi

• yetarlicha mustahkam; yumshagan, burishgan yoki ortiqcha tashqi namliksiz bo‘lishi

• yaxshi shakllangan, qo‘shaloq yoki ko‘p karrali mevalardan xoli bo‘lishi

• me’yordan tashqari tashqi namlikdan xoli bo‘lishi

• har qanday yot hid va/yoki ta’msiz bo‘lishi.

Kivilarning yetilish darajasi va holati shunday bo‘lishi kerakki, ular:

STANDARTLAR INSTITUTI #G6KQFTJP9S - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• tashish,(transportda tashish) yuklash va tushirishga bardosh bera olsin
• manzilingizga qoniqarli holatda yetib kelishi.

B. Yetilish talablari

Kivi mevalarning rivojlanish va yetilganlik darajasi shunday bo‘lishi kerakki, ular pishish jarayonini davom ettira olsin va qoniqarli yetilishi darajasiga yetishini ta’minlashi kerak.

Ushbu talabni bajarish uchun qadoqlash paytida meva pishib yetilish darajasi kamida 6.2° Brix yoki o‘rtacha quruq modda miqdori 15% ni tashkil etishi kerak. Bu taqsimot zanjiriga kirishda 9.5° Brix ko‘rsatkichiga olib kelishi kerak.

C. Tasnifi

Kivi mevalari quyida belgilangan uchta navga bo‘linadi:

(i) Oliy nav

Ushbu sinfdagi kivi yuqori (a’lo) sifatli bo‘lishi kerak. U mahsulot naviga xos xususiyatlarga to‘liq ega bo‘lishi kerak. Meva tarang (qattiq) va uning et qismi mutlaqo sog‘lom bo‘lishi kerak. Mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanuvchanligiga va qadoqdagi taqdimotiga ta’sir etmagan juda yengil yuzaki nuqsonlardan tashqari, har qanday nuqsonlarning bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mevaning ekvatorial kesimi bo‘yicha o‘lchangan minimal/maksimal diametri nisbati 0.8 yoki undan yuqori bo‘lishi kerak.

(ii) Birinchi nav

Ushbu sinfdagi kivi yaxshi sifatli bo‘lishi kerak. U mahsulot naviga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Meva qattiq va uning et qismi mutlaqo sog‘lom bo‘lishi kerak. Biroq, mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanuvchanligiga va qadoqdagi taqdimotiga ta’sir etmagan holda, quyidagi kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

• shaklidagi biroz (yengil) nuqson;
• rangdagi yengil nuqsonlar;
• po‘stloqdagi arzimas nuqsonlar, jumladan, bitib ketgan mayda yoriqlar, ular quyidagi me’yorlardan oshmasligi kerak:
• cho‘zilgan shakldagi nuqsonlar uchun uzunligi 1 cm dan oshmasligi;
• po‘stloqdagi yengil nuqsonlar, bunda zararlangan umumiy maydon 1 sm^2 dan oshmasligi kerak.
• bo‘ylama chiziqlar ko‘rinishidagi va bo‘rtmalarsiz bo‘lgan kichik “Xeyvord belgisi” (Hayward mark).

Mevaning ekvatorial kesimi bo‘yicha o‘lchangan minimal/maksimal diametri nisbati 0.7 yoki undan yuqori bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #G6KQFTJP9S - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

(iii) Ikkinchi nav

Ushbu navga yuqori navlarga kiritib bo‘lmaydigan, biroq yuqorida sanab o‘tilgan minimal talablarga javob beradigan kivi mevalari kiradi.

Mevalar yetarlicha mustahkam bo‘lishi va ularning eti jiddiy nuqsonlarga ega bo‘lmasligi kerak.

Agar kivilar o‘ziga xos sifat belgilari, saqlanuvchanligi va tovar ko‘rinishini saqlab qolsa, quyidagi nuqsonlarga ruxsat etiladi:

- shakl nuqsonlari;
- rangdagi nuqsonlar;
- umumiy maydoni 1 sm² dan oshmaydigan ezilish;
- po‘stloqdagi nuqsonlar, masalan, bitgan kichik kesiklar yoki chandiqlangan/shilingan to‘qimalar, bunda zararlangan umumiy maydon 2 sm² dan oshmasligi kerak;
- biroz bo‘rtmaga ega bo‘lgan, sezilarliroq ko‘ringan bir nechta “Xeyvord belgilari” (Hayward marks);
- yengil ezilishlar.

III. O‘lchamlarga oid qoidalar

O‘lcham mevaning og‘irligi bilan belgilanadi.

Minimal og‘irlik “Oliy” nav uchun — 90 g, I nav uchun — 70 g va II nav uchun — 65 g ni tashkil etadi.

O‘lchamdagi bir xillikni ta’minlash maqsadida, bitta qadoqdagi mahsulotlar o‘rtasidagi o‘lcham farqi quyidagilardan oshmasligi kerak:

- og‘irligi 85 g gacha bo‘lgan mevalar uchun — 10 g;
- og‘irligi 85 g dan 120 g gacha bo‘lgan mevalar uchun — 15 g;
- og‘irligi 120 g dan 150 g gacha bo‘lgan mevalar uchun — 20 g;
- og‘irligi 150 g va undan ortiq bo‘lgan mevalar uchun — 40 g.

IV. Ruxsat etilgan og‘ishlarga oid qoidalar

Ko‘rsatilgan nav talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun xar bir turkumda sotishning barcha bosqichlarida sifat va o‘lcham bo‘yicha og‘ishlarga yo‘l qo‘yiladi.

A. Qo‘yim sifati

(i) Oliy nav

Umumiy hisobda miqdori yoki vazni bo‘yicha 5 % gacha ushbu nav talablariga to‘liq javob bermaydigan, biroq birinchi nav talablariga mos keladigan kivi mevalar mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Ushbu og‘ish doirasida umumiy miqdorning 0,5 % dan ko‘p bo‘lmagan qismi ikkinchi nav sifat talablariga javob beradigan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

(ii) Birinchi nav

STANDARTLAR INSTITUTI #G6KQFTJP9S - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Umumiy hisobda miqdori yoki vazni bo‘yicha 10 % gacha ushbu nav talablariga javob bermaydigan, biroq ikkinchi nav talablariga mos keladigan kivi mevalar mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Ushbu og‘ish doirasida umumiy miqdorning 1 % dan ko‘p bo‘lmagan qismi ikkinchi nav sifat talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan yoki degradatsiyaga uchragan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

(iii) Ikkinchi nav

Umumiy hisobda miqdori yoki vazni bo‘yicha 10 % gacha ushbu nav talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan kivilar mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Ushbu og‘ish doirasida umumiy miqdorning 2 % dan ko‘p bo‘lmagan qismi degradatsiyaga uchragan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

B. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan og‘ishlar

Barcha sifat toifalari uchun (kalibrlash amalga oshirilgan hollarda) umumiy hisobda miqdori yoki vazni bo‘yicha 10 % gacha kalibrlash talablariga javob bermaydigan kivi mevalarning mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Biroq, kivi mevalarining og‘irligi “Oliy” navda — 85 g dan, I navda — 67 g dan va II navda — 62 g dan kam bo‘lmasligi kerak.

V. Tovar ko‘rinishiga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoq tarkibi bir xilda va faqat bitta kelib chiqishga ega, bir xil navga mansub, bir xil sifat toifasi va o‘lchamdagi kivi mevalardan iborat bo‘lishi kerak.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi butun qadoq tarkibiga to‘liq mos kelishi kerak.

B. Qadoqlash

Mahsulot uning tegishli darajada saqlanishini ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida foydalaniladigan materiallar toza bo‘lishi va mahsulotga tashqi yoki ichki zarar yetkazmaydigan sifatda bo‘lishi kerak.

Xususan, matn yozish yoki yorliq yopishtirish uchun toksik bo‘lmagan siyoh yoki yelim qo‘llanilishi sharti bilan qog‘oz yoki savdo tavsiflari tushirilgan yorliqlardan foydalanishga ruxsat etiladi.

Qadoqlarda hech qanday begona moddalarning bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

STANDARTLAR INSTITUTI #G6KQFTJP9S - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Har bir qadoq[1] quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak: yozuvlar bir tomonda jamlangan, aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan tarzda belgilangan hamda tashqi tomondan ko‘rinadigan bo‘lishi kerak.

A. Identifikatsiya belgilari

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi:
Nomi va jismoniy manzili (masalan, ko‘cha/shahar/hudud/pochta indeksi hamda, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki bunday tizimni qo‘llayotgan mamlakat BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi ma’lumotlar bazasida ro‘yxatga olingan bo‘lsa, milliy vakolatli organ[2] tomonidan rasman tan olingan kod belgisi.

B. Mahsulot tavsifi

Agar qadoq ichidagi mahsulot tashqi tomondan ko‘rinib turmasa, “Kivi” yoki tegishli hollarda “Aktinidiya” yoki ularga teng ma’nodagi belgilanish;

navning nomi (ixtiyoriy);
agar yashil bo‘lmasa, meva etining rangi yoki unga teng keladigan ko‘rsatkich.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

Kelib chiqish mamlakati[3] va ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan hudud yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy nomi.

D. Tijorat tavsifnomalari

nav;
o‘lcham, mevaning minimal va maksimal diametrlari bilan ifodalangan holda.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

1988-yilda qabul qilingan.
Oxirgi marta 2017-yilda qayta ko‘rib chiqilgan.
2017 yilgi standartlarning Namunaviy shakliga muvofiqlashtirilgan.

---

[1] Ushbu tamg‘a qoidalari qadoqlar ichida taqdim etiladigan iste’mol qadoqlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq, ular alohida taqdim etiladigan iste’mol qadoqlariga nisbatan qo‘llaniladi.

[2] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nom va manzilni aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, kodli belgi qo‘llanilgan taqdirda, “qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi (yoki shunga tenglashtirilgan qisqartmalar)” yozuvi ushbu kodli belgi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rsatilishi kerak, shuningdek, agar tan olgan mamlakat kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, kodli belgidan oldin ushbu mamlakatning ISO 3166 (alfa) standarti bo‘yicha mamlakat/hudud kodi ko‘rsatilishi kerak.

[3] To‘liq yoki odatda ishlatiladigan nom ko‘rsatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #G6KQFTJP9S - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) Meva va sabzavotlar uchun xalqaro standartlarni qo‘llash chizmasi ushbu standartni qo‘llash bo‘yicha tushuntirishli tasvirlangan broshyurani nashr etdi. Nashrni OECD kitob do‘konidan quyidagi manzil orqali olish mumkin: www.oecdbookshop.org.

STANDARTLAR INSTITUTI #G6KQFTJP9S - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI